



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Bahodir Isakov O‘ZBEKISTONDAGI QOZOQ ETNOSI TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	5
2. Abduvali Berdiyev, Soatqulov Islom XIVA XONLARI VA USMONLI SULTONLARI O‘RTASIDAGI YOZISHMALAR: DIPLOMATIK MAKTUBLAR TILI VA USLUBI.....	10
3. Пётр Чублук НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСТОРИИ ГРЕКО-МАКЕДОНЦЕВ НА ТЕРРИТОРИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ ПРИ СЕЛЕВКИДАХ.....	14
4. Shahlo Ubaydullayeva O‘ZBEKISTON TIBBIYOTIDA XOTIN-QIZLAR FAOLIYATI VA ONA-BOLA SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH MUAMMOLARI (XX ASRNING IKKINCHI YARMI MISOLIDA).....	22
5. Mirhomid Mirakbarov O‘ZBEKISTON GEOLOGIYASI TARIXIDA MURUNTOV OLTIN KONINING KASHF ETILISHI VA MAMLAKATIMIZ SANOATIDA TUTGAN O‘RNI.....	28
6. Mirjalol Abdullayev SHAYBONIYLAR DAVRIDA MUKOFOTLASH VA JAZOLASH TIZIMI (“MUSAXXIR AL- BILOD” ASARI MISOLIDA).....	35
7. Abdillajon Pazilov BENJAMIN FRANKLINNING IQTISODIY VA FALSAFIY QARASHLARI.....	41
8. Mashhura Burxanova ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O‘LKASIDAGI STRATEGIK MAQSADLARI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	46
9. Равшан Хомитов ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭТНОСЛАРАРО МУНОСАБАТЛАРДА РЕСПУБЛИКА ҚОЗОҚ МИЛЛИЙ МАДАНИЙ МАРКАЗИНИНГ ЎРНИ.....	51
10. Iqbol Jabbarova РАХТАЧИЛИКНИ RIVOJLANTIRISH YO‘LIDA: QASHQADARYO IRRIGATSIYA TIZIMINING BOSHLANG‘ICH TRANSFORMATSIYASI (1930–1940-y.).....	57
11. Rabiyajon Ibragimova QUYI AMUDARYO HUDUDIDA ANTIK DAVR SUG‘ORISH INSHOOTLARI.....	64
12. Gulrux Fayzullayeva, Shoira Nurullayeva AL XORAZMIY HAQIDA.....	68



Mirjalol O'ktam o'g'li Abdullayev,
Guliston davlat universiteti,
tayanch doktorant
e-mail: abdullayevmirjalol319@gmail.com

SHAYBONIYLAR DAVRIDA MUKOFOTLASH VA JAZOLASH TIZIMI (“MUSAXXIR AL-BILOD” ASARI MISOLIDA)

For citation: Mirjalol O. Abdullayev. THE SYSTEM OF INCENTIVES AND PUNISHMENTS DURING THE REIGN OF THE SHAYBANIDS (BASED ON THE EXAMPLE OF THE WORK “MUSAXXIR AL-BILOD”). Look to the past. 2026, vol. 9, issue 4.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19846058>

ANNOTATSIYA

Maqolada Shayboniylar davrida boshqaruvning muhim amaliy mexanizmi sifatida mukofotlash va jazolash tizimining o'rnini ochib berilgan. “Musaxxir al-bilod” asaridagi ma'lumotlar ilk bor ilmiy tahlilga tortilib, tizimlashtirilib, ushbu tizim hokimiyatni mustahkamlash vositasi, siyosiy madaniyat va huquqiy tafakkurning ifodasi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda rag'batlantirish va jazolash tizimi boshqaruvning muhim instrumenti sifatida yoritilib, uning hokimiyat irodasini amalga oshirish, elita ustidan nazoratni ta'minlash, intizomni mustahkamlash hamda siyosiy barqarorlikni saqlashdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: manbashunoslik, shayboniylar, o'rta asr davlat boshqaruvi mexanizimi, xon hokimiyati, davlatchilik an'analari, siyosiy hokimiyat, elita nazorati, mukofotlash, rag'batlantirish tizimi, jazo turlari

Абдуллаев Миржалол Уктам угли,
Гулистанский государственный университет,
базовый докторант
e-mail: abdullayevmirjalol319@gmail.com

СИСТЕМА ПОощРЕНИЙ И НАКАЗАНИЙ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ ШАЙБАНИДОВ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «МУСАХХИР АЛ-БИЛОД»).

АННОТАЦИЯ

В статье раскрывается роль системы поощрения и наказания как важного практического механизма управления в эпоху Шейбанидов. Сведения, содержащиеся в произведении «Мусаххир ал-билод», впервые подвергнуты научному анализу и систематизации, а данная система интерпретируется как средство укрепления власти, выражение политической культуры и правового мышления. В исследовании система стимулирования и наказания освещается как важный инструмент управления, обосновывается её значение в реализации воли власти, обеспечении контроля над элитой, укреплении дисциплины и сохранении политической стабильности.

Ключевые слова: источниковедение, Шейбаниды, механизм средневекового государственного управления, ханская власть, традиции государственности, политическая власть, контроль над элитой, награждение, система поощрения, виды наказания.

Mirjalol O‘. Abdullayev,
Gulistan State University,
Basic Doctoral Researcher
e-mail: abdullayevmirjalol319@gmail.com

THE SYSTEM OF INCENTIVES AND PUNISHMENTS DURING THE REIGN OF THE SHAYBANIDS (BASED ON THE EXAMPLE OF THE WORK “MUSAXXIR AL-BILOD”)

ABSTRACT

The article examines the role of the system of reward and punishment as an important practical mechanism of governance during the Shaybanid period. The information contained in Musaxxir al-bilad is, for the first time, subjected to scholarly analysis and systematization, and this system is interpreted as a means of consolidating power and as an expression of political culture and legal thought. The study highlights the system of encouragement and punishment as an important instrument of governance and substantiates its significance in implementing the will of the ruling authority, ensuring control over the elite, strengthening discipline, and maintaining political stability.

Index Terms: source studies, Shaybanids, mechanism of medieval state governance, khan’s authority, traditions of statehood, political power, control over the elite, rewarding, incentive system, types of punishment.

Dolzarbligi:

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, unda Shayboniylar davlati boshqaruv tizimining muhim, ammo kam o‘rganilgan jihatlaridan biri – rag‘batlantirish va jazolash mexanizmlari manbashunoslik asosida tahlil qilinadi. Xususan, “Musaxxir al-bilod” asari ma’lumotlarini tizimli o‘rganish orqali siyosiy boshqaruvning amaliy vositalari, hokimiyatni mustahkamlash usullari hamda elita ustidan nazorat mexanizmlarini yoritish bugungi tarixshunoslikda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalaning tadqiq etilishi nafaqat Shayboniylar davlati siyosiy tizimini chuqurroq anglashga, balki o‘rta asrlar Markaziy Osiyo davlatlarida hukmronlik amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Shayboniylar sulolasi XVI asrda temuriylardan keyin Movarounnahr mintaqasi hukmronlik boshqaruvini qo‘lga kiritgan. Davr muarrixlari asarlarida sulola tarixi, hukmdorlar faoliyati va davlat boshqaruvi tizimi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirib o‘tilgan [6]. Mazkur manbalarda davlat boshqaruvining qonun-qoidalari va o‘ziga xos tartiblari xususida ham so‘z yuritilgan. Sulola davr tarixi sovet davri [4] va mustaqillik [4] hamda xorijiy tadqiqotchilar [2] tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, davlat boshqaruvidagi amaldorlarni mansabga tayinlash, ularni ozod etish, mukofotlash va jazoga tortishga doir izlanishlar hali amalga oshirilmaganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari:

Tarix ilmining mohiyati haqida fikr yuritar ekan, “Musaxxir al-bilod” asari muallifi Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an tarixni “bo‘lib o‘tgan favqulodda va nodir voqea-hodisalarni yozib borish yoki avvalgi mualliflar tomonidan bitilgan ma’lumotlarni muayyan mavzu doirasida jamlab, ularni tartibga solish” sifatida ta’riflaydi. Shayboniylar davri tarixi muhim manbalari qatorida turuvchi mazkur asar olti bobdan iborat [3]. Shayboniyxonning otasi – Shoh Budog‘ sulton ibn Abulxayr xon va uning farzandlari, Shayboniyxonning amakilari – Ko‘chkinchixon va Sevinchixon hamda uning zurriyotlari, Xo‘ja Muhammad va uning avlodlari, shuningdek Abdullohxonning hayoti hamda harbiy yurishlariga bag‘ishlangan boblar asarda keng yoritilgan. Shayboniylar hayotini aks ettirgan “Musaxxir al-bilod” asarida boshqaruv tizimi, harbiy yurishlari

aks etgan. Asar muallifi shu davrda yashagan va ijod qilgan, tarixiy voqea guvohi bo'lgan, muallif ta'biricha "voqea ishtirokchilarining aytishicha", "ko'rganlaridan eshitganlariga ko'ra" berilgan ma'lumotiga tayanilgani manbaning ishonchlilik darajasini oshiradi.

Manbalarda mukofotlash va jazolash tizimi bilan bog'liq ma'lumotlar ham keng o'rin olgan. Xususan, Muhammadyor ibn Arab Qatag'an tasvirlarida o'rta asr boshqaruvida davlat boshqaruvi tizimida mukofot va jazo berishning manbai xon hokimiyati hisoblanganligi haqida ma'lumot mavjud. Asarda "*xonning inoyatiga sazovor bo'ldi*", "*jazoga hukm etildi*" kabi ko'plab misollarning keltirilganligi fikrmizga dalil bo'la oladi. Mazkur asardagi ma'lumotlarning yondosh manbalardagi – arxiv hujjatlarida keltirilganligi manba ma'lumotlarining ishonchlilik darajasini ko'rsatadi [10].

Mukofotlar rag'batlantirish shakli bo'lib, qilgan xizmatiga qarab alohida insonlar guruhining xizmatlarini tan olish to'g'risidagi nizomnoma tartibi orqali amalga oshirilgan [1]. Shayboniyar davrida *mukofotlash, lavozimga tayinlash* orqali amalga oshirilgan [9]. *Taqdirlash masalalari bo'yicha ishlar quyidagi tarzda: lavozim va mansabga tayin qilish, yer mulk berish, moliyaviy in'omlar, sharaf ramzlari bo'lgan tug', tabl, nog'oralar berilishi, siyosiy jihatdan yaqinlashuv uchun quda-andachilik va nikoh munosabatlari* shaklida amalga oshirilganligi manbalarda qayd etilgan. Xon sadoqat bilan xizmat qilgan qabila boshliqlariga, harbiy xizmatlari uchun, mamalakat tinchligini saqlashga qo'shgan hissasi uchun mukofotlar bergan va mazkur amallar asosida davlat boshqaruv mexanizimini doimiy harakatga keltirib turilganligi bilan bog'liq ma'lumotlar asarda o'z ifodasini topgan.

Asarning "*Muhammad Shayboniyxonning Samarqandga yurishi zikri*" degan faslida xonning Samarqandni egallash uchun rag'batlantirish amaliyotidan foydalanib ish yuritganligi tufayli muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgani qayd etib o'tilgan. Asarda Buxoroni qo'lga kiritgan Muhammad Shayboniyxon "*Zafarli askarlaridan har birini imkoni boricha, ularning iltimoslari asosida viloyat va tuman hokimligi mansablari bilan siyladi, ba'zilarini esa qo'shindagi yaxshi lavozimlarga qo'ydi. Shuningdek, ayrimlariga yanada yuqoriroq mansab va yuksak martaba ulashdi, ilm va fatvo, zuhd va taqvo ahlining ko'nglini esa cheksiz in'omlar, tunganmas izzat-ikromlar bilan rozi qildi*" deyilgan [7, 108].

Hukmdorning *muruvvatidan* ilhomlangan amaldorlar navbatdagi hudud– Samarqandni egallash uchun harakatga tushadi. Samarqandda o'sha paytda Samarqand *voliyi* bo'lib turgan amir Sulton Ali Mirzo va Muhammad Mazid Tarxon o'rtasida kelishmovchilik kuchaygani sababli Muhammad Mazid Tarxon Amir Qul Muhammad, Amir Pir Muhammad va yana bir guruh amirlar bilan ittifoq tuzib, Mirzoga qarshi harakatlanish uchun Kesh viloyatiga borib joylashgan edi.

Samarqandda boshlangan tartibsizlik va boshboshdoqlikdan foydalangan Muhammad Shayboniyxon Samarqandni egallashga kirishadi. Sulton Ali Mirzo xoja Qutbiddin Muhammad Yahyo bilan Bobur Mirzo o'rtasidagi ittifoqchilikdan xavotirga tushib, o'zining ba'zi noiblari bilan yomon hodisa yuzaga kelmasdan ilgari Shayboniyxondan yordam so'rab, shaharni unga topshirishga qaror qilishadi. "*Dashti Qipchoqdagi barcha yurt vorisi va saltanat egasi bo'lishga qodir baland maqomli chingiziy sultonlar va nusrat shior xoqonlar ul hazrat xizmatida huzur-farah va zavq-surur halovatiga erishib, bu xonlug' etagi va inoyati soyasida osuda hayot kechirayaptilar. Biz ham ixlos va birdamlik yuzasidan belga itoat kamarini bog'lab, ul hazratning xos kishilari qatorida xizmatda bo'lsak va Samarqand mulkini unga topshirsak, ishonchimiz komilki, xon inoyatiga erishamiz va, aniqki, u boshimizga kelajak hodisalar balosi va voqealar azobiga qalqon bo'lajak*", degan qarorga keladi [7, 70].

Juma kuni xoja Qutbiddin Muhammad Yahyo yonidagi kishilari bilan Jome' masjidiga ketib, namozga mashg'ul bo'lgan fursatidan foydalangan Sulton Ali Mirzo o'z yaqinlari bilan otlarga minib, Chahorroha darvozasini orqali Muhammad Shayboniyxon huzuriga yo'l oladi. Xon Bog'i Maydon mavzeida chodir atrofidagi qo'riqchilar Sulton Ali Mirzo kelganini ma'lum qiladilar. Mirzo xonga tiz cho'kib, ta'zim qiladi. Muhammad Shayboniyxon Sulton Ali Mirzoni yoniga chorlab, turli lutfu karamlar ko'rsatadi va uni *qimmatli libos* hamda *ziynatlangan kamar* bilan siylaydi. So'ng xon farmoniga ko'ra, o'g'li Muhammad Temur sulton chodiri yonida Mirzo uchun yana (hokimiyat va maqom belgisi bo'lgan) *bir chodir* tikiladi va u shu yerga joylashtiriladi [7, 70].

Bu holdan xabar topgan Samarqandda qolgan boshqa amirlar: Ibrohim tarxon, Amir Qavchin, Amir Sulton Husayn arg'un, Amir Abdulvahob shig'ovul kabi amirlari va boshqalar xoja Qutbiddin Muhammad Yahyo bilan kelisholmay, ular birgalashib, *sovg'a-salom* va *hadyalar* tayyorlab Shayboniyxon tamonga o'tadi. Ko'p o'tmasdan yana yirik diniy ulamolardan: hazrat Qutbiddin Muhammad Yahyo ham ikki aziz o'g'li bilan, shuningdek xoja Muhammad Zakaryo, xoja Muhammad Abdulboqiy, xoja Xovand, xoja Abdullatif, amir Abdulbosit, xoja Xurd Qoziy, xoja Abulmafoxir va boshqalar Muhammad Shayboniyxon tomoniga o'tadi va ularga iltifot ko'rsatiladi [7, 71]. Xon amirlar va diniy ulamolarni *qimmatbaho libos*, *ziynatli kamarlar* bilan siylab hadyalar berishi ularning sadoqatini ta'minlashga qaratilgan oqilona tadbirlaridan hisoblanganligini ko'rish mumkin.

Shayboniyxon o'zining yaqin amirlaridan sanalgan Jonvafobiyni Samarqand shahriga *dorug'a* etib tayinlaydi. Amir Jonvafo amir Jaloliddin Soniy Tarxon va uning ukasi amir Fozil Tarxonlar podshohlik xazinasini ro'yxatdan o'tkazib, yangi hukumat xazinasiga qo'shib oladilar [7, 72]. Ko'rsatilgan bunday iltifotlar amaldorlarning xon hokimiyatiga tobeligini mustahkamlagan.

Asarda jamiyatda kuchli ta'sirga ega bo'lgan lekin, Kesh viloyatiga ketib qolgan shayxulislom A'zam xoja Abulmakorimga xon maktub bitib, Samarqandga qaytib kelishini so'raydi. Xoja Abulmakorim xon huzuriga keladi. Ular Jizzax viloyatida turgan bo'lib Xoja Munir o'g'li bilan xon chaqiruviga binoan xizmatga oshiqadi va *izzat-ikromlarga* sazovor bo'ladi. Buxoroda qolgan mavlono Abdurahim sadr ham yetib kelib, *xon inoyatiga* musharraf bo'ladi [7, 73].

Manbada ko'zga tashlanadigan qiziq ma'lumotlardan biri shuki, unda "shayx Abullaysning katta-yu kichik avlodlaridan hech biri hech qachon va hech bir zamonda yurtning boshqa ulug'lariga o'xshab davlat ishlariga aralashmagan"liklari uchun Muhammad Shayboniyxonning *cheksiz inoyati* va nihoyat *darajadagi siyloviga* erishadi. Xon ularni *ofat va xavf-xatarlardan himoya qilib, oliy mansab va yuqori martabalar* beradi. Nizomiddin xoja Xovand Samarqand shahri va uning atrof yerlarining *shayxulislomlik oliy mansabiga* munosib ko'riladi. Oliy hazrat, Jaloliddin xoja Abdullatifni *qozi ul-quzzot* mansabigacha ko'taradi [7, 74]. Tabiiyki, bunday harakatlar Shayboniyxonning shaxsiy saxovatidan tashqari, davlat siyosatining qon to'kmay mustahkam boshqarish yo'llaridan biri bo'lganligini ko'rsatadi.

Shayboniy davri jazolash tizimi shariat qoidalariga ko'ra amalga oshirilgan. Jinoyat turlari 3 ga bo'lingan: a) had jazo turlari o'ta og'ir jinoyatlar b) tanga jazo ya'ni tavon qoidasi ko'zda tutilgan jinoyatlar) jazo turlari qo'llanishi ko'zda tutilgan jinoyatlar [8]. Jinoyatlarning sodir etilgan holatlariga ko'ra jazo tayinlanilgan. Tahlil etilayotgan "Musaxxir al-bilod" asarining Shayboniyxonning Samarqandga yurishi deb nomlangan faslida jazolash amaliyoti haqida so'z yuritiladi. Masalan, amir Jon Aliboyni bir necha kishi bilan til biriktirib, Sulton Ali Mirzoni olib qochish va xonga qarshi isyon ko'tarish niyati borligi haqidagi xabar xon qulog'iga yetkazilganida Muhammad Shayboniyxon mavlono Abdurahim sadrni chaqirtirib, qo'zg'olon fitnasini boshlamasdan oldin Sulton Ali Mirzo va amir Jon Aliboyni *jazolashga* qaror qiladi. O'sha kechaning o'zida ikkalasi ham qo'lga olinib, *qatl* ettiriladi [7, 74].

Samarqandni qo'lga kiritganidan keyin davlat amaldorlari xonga: "Samarqand ulug'larining bo'ysunmay, isyonga qo'l urishlarining sababi shundaki, ularning qo'llarida juda ko'p miqdorda boylik to'plangan. Agar ana shunday kuchga suyanib reja qilingan fitna bostirilsa, asl sabab oradan yo'qotilsa, podshohlik shuhratingiz ortishi, davlatingiz dastgohi qudrati oshishiga olib keladi", – deb uqtirishadi. Hukmdor Muhammad Shayboniyxon davlat ishida ishlab, boylik va mol-dunyo orttirgan arboblarning *mol-mulki xatga olinib, musodara qilinsin*, degan farmon chiqaradi. Farmonga binoan mullo Abdurahim sadr hazrat xoja Qutbiddin Muhammad Yahyo va ul zot farzandlariga taalluqli *mol-mulk* va Mullo Shamsiddin Muhammad sadr xoja Xurd qozining *mol-mulklari tortib olinadi*. Amir Bek Otaga amir Abdulbositning mol-mulkini *tasarruf etish* buyrug'i beriladi. Shuningdek, chig'atoy amirlarining mol-mulki ham zafar nishonli qo'shinning ko'zga ko'ringan, atoqli kishilari tomonidan tortib olinib, tasarruf etilishiga hukm etiladi. Manbada *farmonga muvofiq har kim o'ziga biriktirilgan, xat qilingan kishilarning mol-mulkini undirishga kirishdi. Bahodirlarga oz kun ichida, ko'p yillar davomida yeb-ichsalar ham sira bitib-tuganmas darajadagi boylik nasib etgani qayd etilgan*" [7, 74].

Amaldorlar tomonidan o'sha kezda yana bir tadbir amalga oshiriladi ya'ni, sultonlar, amirlar va zafarpanoh sipoh bahodirlari uchun Samarqand xalqi ustiga juda ko'p miqdorda "mol-i omoniy" (omon miqdori) degan soliq undiriladi. Mazkur soliqdan hunarmand va ishchilar norozi bo'lib, Muhammadxon Shayboniyxondan ko'ngillari qoladi. Ranjigan aholi o'rtasida Bobur Mirzoning Samarqandga kelishi va unga egalik qilishiga mayl bildiriladi. Ular odam yuborib, Bobur Mirzoni Samarqandni qayta egallash uchun chaqiriladi. Shayboniyxonning jazolash siyosatining ortib borishi natajasida egallangan hudud (Samarqand) qo'ldan ketadi.

Asarda shayboniy hukmdorlarning jazolash ishlari bilan bog'liq bir qancha misollar qayd etilgan. "*Mahmud Sulton Muhammad Shayboniyxonning buyuruq va farmoniga binoan Qunduz tomon yo'l olgani va ushbu viloyatni yaratguvchi Egam inoyati bilan fath etgani zikri*" deb nomlangan faslda Amir Xusravshoh Hirot tomondan Qunduzga borib, Qunduz dorug'asi o'rtasida jang bo'lgani, jangda mag'lub bo'lgan Amir Xusravshohning asirga tushganidan keyin Qunduz dorug'asi uni Qunduz shahriga keltirib, *eshakka teskari mindirilgan* holda shahar ichida aylantirib keyin qatl ettirgani yozilgan [7, 89].

Shuningdek, shayboniyzoda Burhon sulton ibn Muhammadrahim ibn Ubaydulloh sultonni Mirzo Akobiy ibn Saydimbiy qushchi tomonidan uyiga ziyofat uchun chiqartirilib, uying burchagida *boshini tanasidan judo qilib*, hukmdor taxti poyiga yuborilgani yozilgan [7, 151].

Shayboniyzodalardan Bahodir sulton, Hoji Husayn sulton [7, 157], **Shoh Muhammad sulton va Muzaffar sulton [7, 170], Bobo sulton ibn Baroqxon ibn Sevinchixon [7, 171], Abdulg'affor sulton [7, 174], Tohir sulton ibn Baroqxon [7, 179], Jahongir sulton ibn Sayid Muhammad sulton, Jahongir sulton [7, 188], Rustam sulton ibn Jonibek sulton [7, 196], Abdulamin sulton ibn Ibodulloh sulton [7, 213]** siyosat qilichi bilan boshi tanasidan judo qilingan. Shahzodalarning vafoti bilan bog'liq bunday ma'lumotlar shayboniylar sulolasi boshqaruvining zaiflashayotganligini ko'rsatuvchi muhim omillardan ekanligiga yana bir dalil deyish mumkin.

Asarda jazolash tizimi bilan bog'liq qo'l oyog'ini kishanlab, surgun qilgani xususida ham ma'lumotlar o'rin olgan bo'lib, Shohmuhammad barlos, Oftob Tarxon, Bek Keldi [7, 67] kabi ko'plab amirlarning yerlari musodara qilingani yozib o'tilgan.

Xulosa:

Manba tahlilidan chiqariladigan umumiy xulosalar shundan iboratki, bir asrlik shayboniylar sulolasining boshqaruvi rag'batlantirish tizimi markaziy mexanizmlaridan biri bo'lib, siyosiy barqarorlik, harbiy safarbarlik va sulola hokimiyatini mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qilgan. Hukmdor amirlar, sultonlar va qabila boshliqlariga yer-mulk, unvon va mansablar berish orqali ular markaziy hokimiyatga bog'lab qo'yilgan.

Shayboniylar davrida jazolash tizimi huquqiy chora bo'lib qolmasdan, isyonlarni bartaraf etish, taxt uchun kurashda raqiblarni cheklash, davlat tizimida intizomni o'rnatish, harbiy samaradorlikni oshirish uchun qo'llanilgan.

Muhammadyor ibn Arab Qatag'anning "Musaxxir al-bilod" asari Shayboniylar davri birlamchi manbasi hisoblanib, boshqaruv tizimi davlat modeli bilan bog'liq bo'lgan voqeyiklarni qayta tiklab berishga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Abdullayev D.N. O'zbekistonda mukofotlash tizimi: shakllanishi, bosqichlari va tarixiy ahamiyati // Ilmiy axborotnoma. – 2021. – № 6. – B. 17.
2. Remzi Kilic. Osmanli – ozbek siyasi iliskileri (1530-1555). // Tarih konunlari. - № 2. – Ankara, 2001. – B. 45-47.; Nabe A.S. The Shibanid Question: Reassessing 16th Century Eurasian History in Post-Soviet Uzbekistan: PhD dissertation. – Chicago, Illinois, 2020. – 238 p;
3. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – 352 б.
4. Бартольд В.В. История турецко-монгольских народов. Конспект лекций читанных студентам Казахкого высшего пед.института в 1926-27 учеб.году. Соч., Т. V. М., 1968. Ўша муаллиф: Шейбаниды. Соч., Т 2., 2. с. 485-548. Ўша муаллиф: Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т., 1. М., 1963.; Семёнов А.А. Шейбанихан и завоевание им

империи Темуридов. Ўша муаллиф: Первые Шейбаниды и борьба за Мавереннахр // Материалы по истории узбеков и таджиков, выпуск 1., Сталинабод. – 1954. 3-85, 85-111-стр.; Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI- середина XIX вв). – М.: Восточная литература, 1958. – С.46-88; Мукминова Р.Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. По материалам «Вакф-наме». – Т.: Издательство АН УзССР, 1966. – С.354; Ўша муаллиф: Очерки по ремесла в Самарканде и Бухаре XVI в. (Монография). – Т.: Издательство АН УзССР, 1976. – С.234. Ўша муаллиф: Костюм народов Средней Азии по письменным источникам XVI в. // Костюм народов Средней Азии. М.: Изд-во: “Наука”, 1979. – С.28-36.

5. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврлардан Россия босқинига қадар. – Тошкент: Шарқ, 2001.; Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи (Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). – Тошкент: Адолат, 2007. 156-б.; Мукминова Р., Агзамова Г. Ўрта Осиё хонлиқларида ҳарбий иш // Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. Масъул муҳаррир: Д.Зияева. – Тошкент: Шарқ, 2012. – Б. 106-125; Мажид А. Шайбонийлар давлати. Таржимон: Иқбол Усмон. Тошкент: Nasim Kutub, 2022 . – Б. 177-191. Замонов А. Абдуллахон Иккинчи даврида Бухоро хонлиги: ижтимоий-сиёсий, маданий ҳаёт ва халқаро алоқалар. Тарих фан.бўйича.фал.док (Phd) дисс. автореф. – Тошкент, 2024.

6. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. –Т.: ЎзССР фанлар академияси нашриёти, 1961. – 320 б.; Фазлиллаҳ ибн Рузбехан Исфохани. Меҳманнамаей Бухара (Записки Бухарского гостя). Пер. Р.П. Джалиловой; под.ред. А.К.Арендса. М.: Наука, 1976. -445 с.; Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома («Шарафномаи шоҳий»). Биринчи китоб / форс тилидан С. Мирзаев тарж.; сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б. Аҳмедов. – Тошкент: Шарқ, 1999.

7. Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған.Мусаххир ал-билод (Мамлакатларнинг эгалланиши). / Форс тилидан таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Исмоил Бекжон, Дилорам Сангирова. –Тошкент, Янги аср авлоди. 2009. – Б.108.

8. Ражабова М. А. Шариатда жиноят ва жазо муаммолари (Ханафий мазҳаби бўйича): юридик фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 1996. – 139 б.

9. Семёнов А. А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре // Советское востоковедение. Т. V. М.; Л., 1948. С. 137–153.

10. Ўзбекистон Миллий архиви. 323 - жамғарма. 2-рўйхат.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000